

O'rganilgan variantlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich elita maydonlarida o'simliklarni asosiy o'g'itlash bilan birga o'simliklarni karbamid hamda SEAWEEED Ca+Mg mikroo'g'iti bilan qo'shimcha oziqlantirilgan variantdan olingan urug'lar ekilganda olindi. Bu variantda o'rtacha 3,0 dona mahsuldor poya, 21,6 dona boshqda boshqochalar hamda 55,3 dona donlar shakllanganligi aniqlandi. Bu esa nazorat variantiga nisbatan o'rtacha 0,3 dona ko'p mahsuldor poyalar, 2,8 dona boshqda boshqochalar va 5,2 dona qo'shimcha donlar hosil bo'lishiga erishilganligi jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

Xulosa shuki, olingan natijalar kuzgi bug'doyni $N_{180}P_{90}K_{60}$ me'yorda asosiy o'g'itlarga qo'shimcha ravishda o'suv davrida 15 kg/ga karbamid va SEAWEEED Ca+Mg mikroo'g'iti suspenziyasi bilan oziqlantirish ekinning urug'lik sifatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi orqali kuzgi yumshoq bug'doyning Farboma navining muhim hosil elementlaridan bo'lgan mahsuldor poyalar sonining 0,3 donaga, 2,8 dona boshqda boshqochalar va ularda 5,2 dona qo'shimcha donlar soning ko'payishiga, ya'ni keyingi reproduksiya o'simliklarining biometrik ko'rsatkichlari yuqori o'simliklarning shakllanishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdukarimov D.T. Dala ekinlari xususiy seleksiyasi. /Samarqand: 2018 y. 418-b.
2. Bo'riyev.X.Ch., Do'simurodova.S. Qishloq xo'jalikekinlari urug'shunoslighi. Mehnat. Toshkent. 2000-y.-B 12-22.
3. Овчинников А.С., Борисенко И.Б., Плескачев Ю.Н. Программирование сельскохозяйственных культур при возделывании их с применением инновационных технологии изд. /ГСХА, Волгоград 2011-г. –С 38-50.
4. Toshkentboyeva.F.I. Ildizidan tashqari oziqlantirishning Farboma navi hosildorligi va don sifat ko'rsatkichlariga ta'siri.// Agro-Ilm jurnali 2023-y №-2. B 15-16.
5. Toshkentboyeva.F.I. Kuzgi bug'doy hosildorligi, don sifati va urug'larning ekinboplik ko'rsatkichlariga ma'danli o'g'it me'yorlari va bargidan qo'shimcha oziqlantirishning ta'siri.// "Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti" ilmiy jurnali. 2022-y 14-15-oktyabr. B 1083-1087.
6. Toshkentboyeva.F.I. Influence of cultural fertilizers and additional feedings on the production indicators of winter wheat varieties.// International Conference on Advance Research in Humanites, Applied Sciences. 2023-y. Feb 28th.. 10 th-ICARHSE. <https://conferencea.org>.
7. Yakubov O., Tursunov S., Muqimov J., DONCHILIK. //Toshkent. Yangi asr avlodi 2009-y.-B 266-268-271.

UO'T: 633.11: 631.51

KUZGI BUG'DOYNING «HISORAK» NAVINING MAHSULDORLIK KO'RSATKICHLARIGA EKISH VA O'G'IT ME'YORLARINING TA'SIRI

Qarshiyeva Umida Shukurovna, qishloq xo'jaligi fanlari doktori (DSc),
Karimov Abduxolik Abdullayevich, mustaqil tadqiqotchi,
 Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti

Annotatsiya. Respublikamizda oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlashda boshqqli don ekinlari, jumladan yumshoq bug'doy hosildorligi va don sifatini oshirish, tepishar, noqulay tashqi muhit omillariga chidamli bo'lgan navlarni yaratish bugungi kundagi g'allachilikning eng muhim ahamiyatga molik vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunga kelib O'zbekiston g'alla mustaqilligiga erishib, uni eksport qiluvchi sanoqli mamlakatlar qatoriga kirdi. Qishloq xo'jaligida don hosildorligini oshirish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar tizimli amalga oshirilishi evaziga Respublikamizda 2019 yilda 8 mln. 377 ming tonna, 2021 yilda 6 mln. 656 ming tonna don hosili olingan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich material, mahsuldorlik, kuzgi bugdoy, nav namuna, gullarni bichish.

Аннотация. В мире пшеница (*Triticum aestivum* L.) основную продовольственную культуру, производство и потребность которой возрастает параллельно. По данным ФАО общее производство зерна по всему миру составляет 2 млрд 450 тыс. тонн, из которых на долю зерновых приходится 2 млрд 194 тонн (пшеница, рожь, ячмень, овес, тритикале, рис, кукуруза, просо, гречиха), а зернобобовых культур 256 млн. тонн зерна. Научно-исследовательские работы направлены на создание высокоурожайных сортов, с высоким качеством зерна, устойчивых к болезням, вредителям и полеганию, а также к неблагоприятным условиям среды используя при этом гены контролирующие короткостебельность мягкой пшеницы, что имеет научно практическое значение.

Ключевые слова: исходный материал, урожайность, озимая пшеница, сортообразец, кастрация.

Annotation. In the world, wheat (*Triticum aestivum* L.) is the main food crop, the production and demand of which are increasing in parallel. According to FAO, the total grain production worldwide is 2 billion 450 thousand tons, of which cereals account for 2 billion 194 tons (wheat, rye, barley, oats, triticale, rice, corn, millet, buckwheat), and legumes 256 million. tons of grain. Research works are aimed at creating high-yielding varieties, with high grain quality, resistant to diseases, pests and lodging, as well as to unfavorable environmental conditions using genes controlling the shortness of soft wheat, which is of scientific and practical importance.

Key words: Initial material, selection, shear-wheel wheat, winter wheat, early ripeness, creating varieties.

Kirish. Dunyo bo'yicha bug'doy (*Triticum aestivum* L.) asosiy oziq-ovqat ekini hisoblanib, unga bo'lgan talab va ishlab chiqarish paralell ravishda o'sib bormoqda. «BMT xalqaro tashkilotining ma'lumotiga ko'ra jahonda umumiy don yetishtirish 2 mlrd 450 ming tonna atrofida bo'lib, shundan 2 mlrd 194 ming tonnasi donli ekinlar (bug'doy, javdar, arpa, sul, tritikale, sholi, makkajo'xori, jo'xori, tariq, marjumaq), 256 mln tonnasi dukkakli don ekinlari ulushiga to'g'ri keladi». Yumshoq bug'doyning kalta poyalikni nazorat qiluvchi genlaridan foydalanib serhosil, don sifati yuqori, kasallik va zararkunandalarga, yotib qolishga, muhitning noqulay omillariga chidamli navlarini yaratishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Respublikamizda oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlashda boshqoli don ekinlari, jumladan yumshoq bug'doy hosildorligi va don sifati oshirish, tepishar, noqulay tashqi muhit omillariga chidamli bo'lgan navlarni yaratish bugungi kundagi g'allachilikning eng muhim ahamiyatga molik vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunga kelib O'zbekiston g'alla mustaqilligiga erishib, uni eksport qiluvchi sanoqli mamlakatlar qatoriga kirdi. Qishloq xo'jaligida don hosildorligini oshirish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar tizimli amalga oshirilishi evaziga Respublikamizda 2019 yilda 8 mln. 377 ming tonna, 2021 yilda 6 mln. 656 ming tonna don hosili olingan.

O'zbekistonning sug'oriladigan maydonlar uchun iqlimning global isishi, tuproq unumdorligi va meliorativ holatining pasayishi, turli darajada sho'rlanish, suv tanqisligi, tuproq va havo qurg'oqchiligi yuzaga keladigan sug'oriladigan maydonlar uchun yangi kuzgi bug'doy navlari yaratilgan

O'g'it me'yori to'g'ri qo'llash, hosildorlikni oshirish bilan bir qatorda don va urug'lik sifatlarining yaxshi bo'lishini taminlaydi. Ekish va o'g'it me'yorlari doimo birgalikda to'g'ri qo'llanilganda eng yuqori sifatli urug'lik hosili olinishini Eshmirzaev K.E va boshqalar ta'kidlashgan.

Qurbonov G'.Q, Umarova M.M.larning ta'kidlashlaricha, bug'doy hosildorligini oshirishda navning xo'jalik va biologik nasli xususiyati katta ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan.

Jo'raev D. U.Karshieva va boshqalar ta'kidlashicha kuzgi bug'doy yetishtirish samaradorligini oshirishga serhosil, kasallik va zararkunandalarga chidamli, don sifati kuchli va qimmatli bug'doy talablariga javob beradigan navlarning yaratilishi sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi kunda hosildorlikni oshirish masalalarini yechishda seleksiyaniyning roli kun sayin oshib boradi. Chunki nav hosildorlik darajasini ko'tarish va uning barqarorligini ta'minlashning o'ta ishonchli va iqtisodiy qulay omilidir

Boshqodagi boshqochalar soni turga va navga xos belgi bo'lib, boshqo shakllanish davridagi tashqi muhit sharoiti, o'simlikni ekish va oziqlantirish usuliga, kunning uzunligiga bog'liq holda o'zgargan. Hosildorlikni bir maromda bo'lishligini himoyalash biotik stresslarga chidamli va abiotik omillarga bardoshli bo'lgan navlar yaratish orqali erishish mumkin .

O'zbekiston sharoitida 1000 dona don vaznining 7,7-8,0 g oshishi natijasida ko'karish kuchining 1,5-2 g ga ortishi kuzatiladi, shuningdek 1000 dona don vazni 9-10 gramm oshganda urug'larning dala unuvchanligi 7,5-10% va undan ko'pga oshishi hamda murtak ildizlar soni bittaga ko'payishi mumkin.

Tadqiqotlarning maqsad va vazifalari. sug'oriladigan maydonlari uchun kuzgi yumshoq bug'doyning yotib qolishga, kasallik va zararkunandalarga chidamli, noqulay iqlim sharoitlariga bardoshli, hosildor, yuqori don sifatlariga ega "Hisorak" navini samarali nav agrotexnikasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotlarni o'tkazish uslubi. Dala va laboratoriya tajribalari umumqabul qilingan uslublari asosida, kuzatish, hisoblash va tahlillar Butunrossiya O'simlikshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti (1984), "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" (O'zPITI, 2007), biometrik tahlillar qishloq xo'jalik ekinlari navlarini sinash Davlat nav sinash komissiyasining uslubi (1989), (2004) uslubiy ko'rsatmalari, olingan ma'lumotlarning aniqligi va ishonchligi B.A. Dospexov (1985) bo'yicha matematik-statistik tahlil uslubi hamda Microsoft Excel dasturi yordamida tahlil qilingan.

Natijalar va ularning tahlili. Rivojlanish fazalari va o'suv davrining davomiyliqi. Kuzgi bug'doyning rivojlanish davrlarida o'simlikda morfologik o'zgarishlar sodir bo'ladi va yangi organlar shakllanadi. Boshqoli don ekinlarining urug'i unib

1-jadval.

Yumshoq bug'doyning "Hisorak" navining mahsuldorlik ko'rsatkichlariga ekish va o'g'it me'yorlarining ta'siri.

Ekish me'yori, mln. unuvchan urug'/ga	O'g'it me'yori, kg/ga	Boshqoq uzunligi, sm	Boshqodagi don soni, dona	1 ta boshqodagi don massasi, g	1 m ² da mahsuldor poyalar soni, dona	1000 ta don massasi, g
3.0	Nazorat (o'g'itsiz)	8.0	36	1.22	324.8	26.1
	N ₁₂₀ P ₆₀ K ₆₀	8.6	41.2	1.40	371.0	30.3
	N ₁₅₀ P ₇₅ K ₇₅	9.1	42.5	1.44	386.4	32.2
	N ₁₈₀ P ₉₀ K ₉₀	9.8	43.7	1.54	445.6	35.0
	N ₂₁₀ P ₁₀₅ K ₁₀₅	9.8	41.7	1.50	440.8	32.7
4.0	Nazorat (o'g'itsiz)	8.4	38.4	1.26	363.3	29.4
	N ₁₂₀ P ₆₀ K ₆₀	8.8	42.0	1.34	413.8	31.5
	N ₁₅₀ P ₇₅ K ₇₅	9.3	44.7	1.47	439.2	33.5
	N ₁₈₀ P ₉₀ K ₉₀	9.8	48.4	1.54	442.1	37.1
	N ₂₁₀ P ₁₀₅ K ₁₀₅	10.0	46.3	1.56	450.4	34.8
5.0	Nazorat (o'g'itsiz)	8.1	48.2	1.62	382.3	31.8
	N ₁₂₀ P ₆₀ K ₆₀	8.8	50.4	2.21	444.5	38.1
	N ₁₅₀ P ₇₅ K ₇₅	9.1	53.1	2.64	462.1	46.4
	N ₁₈₀ P ₉₀ K ₉₀	9.4	57.9	3.10	482.3	48.1
	N ₂₁₀ P ₁₀₅ K ₁₀₅	9.0	52.3	2.17	467.2	44.5

chiqishi, o'simlikda hayotchanlik davri boshlanganligidan dalolat beradi. Kuzgi bug'doy urug'larning ekish, unib chikish davri, rivojlanish fazalarining davomiyligi juda ko'p omillarga harorat, namlik, yorug'lik, oziqa moddalar bilan taminlanishi, navning biologik xususiyatlari, agrotexnik tadbirlarga bog'liq holda o'zgaradi.

«Hisorak» navida ekish me'yori 3.0 mln dona unuvchan o'g'it me'yori $N_{120} P_{60} K_{60}$ va $N_{210} P_{105} K_{105}$ kg/ga qo'llanilgan variantlarda boshqoq uzunligi 8.6-9.8 sm, boshqoqdagi soni 41.2-43.7 donani, 1 ta boshqoqdagi don massasi 1.40-1.54 gramm, mahsuldor poyalar soni 371.0-445.8 dona, 1000 ta don massasi 30-35 grammni tashkil etib, ekish me'yori 4.0 mln unuvchan urug', o'g'it me'yori $N_{120} P_{60} K_{60}$ va $N_{210} P_{105} K_{105}$ kg/ga qo'llanilgan variantda boshqoq uzunligi 8.8-10 sm, boshqoqdagi donlar soni 42.0-48.4 donani, 1 ta boshqoqdagi don massasi 1.34-1.56 gramm, mahsuldor

poyalar soni 413.8-450 dona, 1000 ta don massasi 31.5-37.1 grammacha bo'lib, ekish me'yori 5.0 mln unuvchan urug', o'g'it me'yori $N_{120} P_{60} K_{60}$ va $N_{210} P_{105} K_{105}$ kg/ga qo'llanilgan variantda boshqoq uzunligi 8.8-9.4 sm, boshqoqdagi soni 50.4-57.9 donani, mahsuldor poyalar soni 444.5-482.3 dona 1000 ta don massasi 38.1-48.1 gramm ekanligi aniqlandi.

Xulosa shuki, ekish meyorlarining 3.0 mln. unuvchan urug'/ga dan 6.0 mln. unuvchan urug'/ga oshirilishi va shunga muvofiq o'g'itlar meyorining oshirilishi urug'larning ekinboplik sifatleri (1000 ta don massasi, konditsion urug' chiqimi, urug'ning unib chiqish quvvati, unuvchanlik, o'sish kuchi) ta'sir kursatadi. Kuzgi bug'doyning «Hisorak» navidan yuqori hosil va sifatli urug'lik olish uchun, maqbul ekish va o'g'it meyorlarini ilmiy asoslangan holda, ekish me'yori 5 mln unuvchan urug'/ga va o'g'it me'yori $N_{180} P_{90} K_{90}$ kg/ga hisobida qo'llash tavsiya etildi.

ADABIYOTLAR:

1. Atabaeva X.N. Yesbolova M. Ozimaya pshehitsa. "O'zbekiston qishloq xo'jaligi" jurnali. № 3. 2007. -B. 17.
2. Atabaeva X.N. Kuzgi Bug'doy istiqboli navlari hosildorligiga ma'dan o'g'itlar meyorini ta'siri. O'zbekistonda bug'doy seleksiyasi va yetishtirish texnologiyasiga bag'ishlangan birinchi milliy konferensiya. Toshkent. 2004. -B. 27-28.
3. Shukurovna, Q. U., & Shodmonovich, A. S. (2023). KUZGIYUMSHOQ BUG 'DOYNING «QIPCHOQSUV» NAVINING O 'SISHI, RIVOJLANISHI, HOSILDORLIGIGA EKISH VA O 'G 'IT ME'YORLARINING TA'SIRI. AGROINNOVATSIYA, 1(1), 96-102.
4. Shukurovna, Q. U. (2023). YUMSHOQ BUG 'DOY NAV VA TIZMALARINI SELEKSIYA KO 'CHATZORIDA QIMMATLI BELGI XUSUSIYATLARINI O 'RGANISH. AGROINNOVATSIYA, 1(1), 46-49.
4. Juraev, D. T., Dilmurodov, S. D., Kayumov, N. S., Xujakulova, S. R., & Karshiyeva, U. S. (2023). Evaluating Genetic Variability and Biometric Indicators in Bread Wheat Varieties: Implications for Modern Selection Methods. Asian Journal of Agricultural and Horticultural Research, 10(4), 335-351.
5. Ziyadullaev Z.F, Abduazimov A.M. Karshiyeva, U. Turli ob-havo sharoitlarida bahorgi yumshoq bug'doy navlari hosildorligi. O'zbekistonning janubiy hududlarida boshqoqli don ekinlari seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalarining holati va rivojlantirish istiqbollari. 14-15 may Qarshi- 2018.-B. 34.
6. Bekmuradova X. K., Ergashev I. T. HIMOYALANGAN GRUNTD BODRING DURAGAYLARINING HOSILDORLIGIGA TURLI EKISH MUDDATLARINING TA'SIRI //SCHOLAR. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 70-76.
7. Бекмурадова, X. K., & Исмоилов, A. И. Самарканд, Узбекистан Samarkand Institute of veterinary medicine, Samarkand, Uzbekistan The scientific research institute of vegetable groups and potato studies in Samarkand scientific-experimental station, Samarkand, Uzbekistan. ББК 65.2 C56, 58.

UO'T: 635.62(575.1)

XASHAKI QOVOQ VA UNING CHORVACHILIKDAGI AHAMIYATI

Umurzoqova Umida Elmurod qizi, tayanch doktorant,
Berdimuratov Elyor Xayrullayevich, q.x.f.f.d., dotsent,
Samarqand davlat veterinariya medisinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya. Maqolada xashaki qovoqning sistematikasi, tarqalishi va biologik xususiyatlari va uning chovachilikdagi ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Xashaki qovoqning oziqaviylik qiymati va chorva hayvonlari uchun oziqa sifatida foydalanish samaradorligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: qovoq, xashak, turlari, ozuqaviylik qimmat, sistematikasi, agrotexnikasi.

Аннотация. В статье приведены сведения о систематике, распространении и биологических особенностях кормовой тыквы и ее значении в животноводстве. Освещена пищевая ценность кормовой тыквы и эффективность ее использования в качестве корма для скота.

Ключевые слова: тыква, сено, виды, пищевая ценность, систематика, агротехника.

Abstract. The article provides information about the taxonomy, distribution and biological characteristics of fodder pumpkin and its importance in animal husbandry. The nutritional value of fodder pumpkin and the effectiveness of its use as livestock feed are covered.

Key words: pumpkin, hay, species, nutritional value, taxonomy, agricultural technology.

Kirish. Dunyo mamlakatlarida poliz yekini 6.5 mln. gektar maydonga ekiladi va 145 mln. tonnadan ortiq mahsulot

yetishtiriladi. Shundan qovoq 2.3 mln. g maydonga yetishtirilib, 29 mln. tonnadan ziyod mahsulot olinadi.